


O'zbek elim Komiljondan ayrilmas

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida "O'zbek elim Komiljondan ayrilmas" kitobining taqdimotiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda adabiyotshunos, musiqashunos, folklorshunos olimlar va talaba yoshlar ishtirok etishdi. Ular Komiljon Otaniyozov hayoti va ijodiy faoliyati borasidagi o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi.



O'zbekiston xalq artisti Gulsora Yoqubova, shoir Sirojiddin Rauf, xonanda Sayyora Jumaboyeva va boshqalar hassos san'atkor Komiljon Otaniyozov shaxsiyati, uning dilbar kuy-qo'shiqlari haqida o'z estaliklarini yig'ilganlarga so'zlab berdilar. Taqdimot so'ngida, Komiljon Otaniyozovning qo'shiqlarini uning

shogirdlari ijro etishdi va bu barchaga yig'ilganlarga manzur bo'ldi.

